

Mustaqil auditorlarning auditorlik xulosasi

“Trastbank” XAB aksiyadorlari va Kuzatuv kengashiga

Auditorning fikri

Biz “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki (bundan buyon matnda - “Bank”) va uning sho’ba korxonalarining (bundan buyon matnda - “Guruh”) 2025-yil 31-dekabr holatiga ko’ra tuzilgan konsolidatsiyalangan moliyaviy holat to’g’risidagi hisoboti, ko’rsatilgan sanada yakunlangan yil uchun konsolidatsiyalangan foyda yoki zarar va boshqa umumiy daromadlar to’g’risidagi hisoboti, konsolidatsiyalangan pul oqimlari to’g’risidagi hisoboti va konsolidatsiyalangan kapitaldagi o’zgarishlar to’g’risidagi hisoboti (bundan buyon matnda - “konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot”), shuningdek, hisob siyosatining asosiy qoidalari qisqacha mazmunini o’z ichiga olgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga tushuntirishlardan iborat konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotini auditdan o’tkazdik.

Bizning fikrimizcha, ilova qilinayotgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot Guruhning 2025-yil 31-dekabr holatiga ko’ra moliyaviy holatini, shuningdek, ko’rsatilgan sanada yakunlangan yil uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy natijalarini va konsolidatsiyalangan pul oqimlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (bundan buyon matnda - “MHXS”) muvofiq barcha muhim jihatlarida aniq aks ettiradi.

Fikr bildirish uchun asoslar

Biz auditni Xalqaro audit standartlariga (bundan buyon matnda - “XAS”) muvofiq o’tkazdik. Ushbu standartlarga muvofiq bizning mas’uliyatimiz xulosamizning “Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot audit uchun auditorning mas’uliyati” bo’limida batafsil bayon etilgan.

Biz olingan auditorlik dalillari fikr bildirishimiz uchun yetarli va munosib asos bo’lib xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Mustaqillik va sifat nazorati

Biz audit qilinayotgan subyektga nisbatan mustaqilmiz hamda Buxgalterlar uchun etika standartlari bo’yicha xalqaro kengashning Professional buxgalterlar xalqaro etika kodeksi (shu jumladan, Mustaqillikning xalqaro standartlari) (BESXX kodeksi) va BESXX kodeksining 4A-qismidagi mustaqillik talablariga hamda O’zbekiston Respublikasi Auditorlarining professional etika kodeksining O’zbekistondagi moliyaviy hisobot auditiga oid etika talablariga rioya qilamiz. Shuningdek, biz ushbu professional etika talablariga muvofiq boshqa majburiyatlarimizni ham bajardik.

Tashkilotimiz 1-sonli Sifatni boshqarishning xalqaro standarti (SBXS 1) - “Moliyaviy hisobotning audit yoki sharhli tekshiruvlarini o’tkazuvchi, shuningdek, ishonchni asoslovchi boshqa topshiriqlarni yoki turdosh xizmatlarni ko’rsatuvchi auditorlik tashkilotlarida sifatni boshqarish”ni qo’llaydi va shunga muvofiq, etika talablariga, professional standartlarga hamda amaldagi qonunchilik va me’yoriy hujjatlar talablariga rioya qilishga oid hujjatlashtirilgan siyosat va tartib-taomillarni o’z ichiga oluvchi keng qamrovli sifatni boshqarish tizimini qo’llab-quvvatlaydi.

PKF MAK ALYANS is a member of PKF Global, the network of member firms of PKF International Limited, each of which is a separate and independent legal entity and does not accept any responsibility or liability for the actions or inactions of any individual member or correspondent firm(s).

PKF MAK ALYANS является членом PKF Global, сети фирм-членов PKF International Limited, каждая из которых является отдельным и независимым юридическим лицом и не несет никакой ответственности за действия или бездействие отдельных членов или фирм-корреспондентов.



Moddiylik

Audit konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotda muhim noto'g'ri talqinlar mavjud emasligiga oqilona ishonch hosil qilish uchun mo'ljallangan. Noto'g'ri talqinlar g'ayriqonuniy xatti-harakatlar yoki xatolar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Agar alohida yoki jamlangan holda ushbu noto'g'ri talqinlar foydalanuvchilarning mazkur konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot asosida qabul qiladigan iqtisodiy qarorlariga ta'sir ko'rsatishi oqilona kutilsa, ular muhim deb hisoblanadi. Biz tomonimizdan moddiylik darajasining qo'llanilishi audit hajmining belgilanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Auditni rejalashtirishda biz moddiylik darajasini belgiladik va konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning muhim noto'g'ri talqin qilinishi tavakkalchiliklarini baholadik. Xususan, biz rahbariyat tomonidan subyektiv mulohazalar yuritilgan sohalarni, masalan, muhim buxgalterlik baholashlariga nisbatan qo'llanilgan farazlarni va tabiati jihatidan noaniqlik bilan bog'liq bo'lgan kelgusi voqealarning ko'rib chiqilishini tahlil qildik. Barcha audit jarayonlarida bo'lgani kabi, biz rahbariyat tomonidan ichki nazorat tizimining chetlab o'tilishi tavakkalchiligini ham ko'rib chiqdik; bu, jumladan, rahbariyatning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari natijasida muhim noto'g'ri talqinlarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan xolis bo'lmagan yondashuv belgilarining mavjudligini baholashni ham o'z ichiga oldi.

Professional mulohazamizga tayanib, biz moddiylik uchun muayyan miqdoriy chegara qiymatlarini, shu jumladan, quyidagi jadvalda ko'rsatilganidek, umuman Guruhning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisoboti darajasidagi moddiylikni belgiladik. Ushbu qiymatlar hamda sifat omillarini hisobga olgan holda, biz audit hajmini, shuningdek, auditorlik tartib-taomillarining xususiyati, muddati va ko'lamini belgiladik hamda mavjud bo'lgan taqdirda noto'g'ri talqinlarning (alohida va jamlangan holda) konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga yaxlitligicha ko'rsatadigan ta'sirini baholadik.

Butun Guruhning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisoboti darajasidagi moddiylik	49 992 808 ming so'm.
Moddiylik darajasining belgilanishi	Biz umumiy moddiylik darajasini soliq to'langunga qadar olingan foyda summasining 5% miqdorida belgiladik.
Qo'llanilgan moddiylik darajasining asoslanishi	Biz soliq to'langunga qadar olingan foyda summasini moddiylik darajasini hisoblash uchun asos sifatida qo'lladik, chunki bizning fikrimizcha, ushbu ko'rsatkich moliyaviy hisobot foydalanuvchilari tomonidan eng ko'p qo'llaniladi va umume'tirof etilgan ko'rsatkich hisoblanadi. Biz 5% miqdoridagi ko'rsatkichni belgiladik, chunki professional tajribamizga tayanib, ushbu ko'rsatkich hisoblash asosi sifatida ushbu summaga nisbatan umume'tirof etilgan miqdoriy o'lchov hisoblanadi.

Auditning asosiy masalalari

Auditning asosiy masalalari - bu bizning professional mulohazamizga ko'ra, hisobot davri uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot auditida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardir. Ushbu masalalar umuman konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot auditida kontekstida va ushbu hisobot bo'yicha xulosamizni shakllantirish jarayonida ko'rib chiqildi va biz ushbu masalalar bo'yicha alohida fikr bildirmaymiz.

Auditning asosiy masalasi

Qanday auditorlik amaliyotlar bajarildi

Mijozlarga berilgan kreditlar, shuningdek, kredit xarakteridagi majburiyatlar bo'yicha kutilayotgan kredit zararlarini zaxirasi

Mijozlarga berilgan kreditlar va kredit xarakteridagi majburiyatlar bo'yicha kutilayotgan kredit zararlarini zaxirasi Bankning moliyaviy holati uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, MHXS (IFRS) 9 "Moliyaviy instrumentlar" yangi standartiga muvofiq kutilayotgan kredit zararlarini baholashda murakkabliklar va bu bo'yicha mulohazalarni qo'llash zaruriyati mavjudligi sababli, ushbu masala auditning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Kutilayotgan kredit zararlarini hisob-kitobi o'z ichiga muhim kuzatilmaydigan boshlang'ich ma'lumotlar va omillardan, masalan, ichki kredit reytinglaridan foydalaniladigan baholash usullarini, shuningdek, murakkab statistik modellashtirish va ekspert xulosalarini oladi. Ushbu metodikalar mavjud tarixiy ma'lumotlar va tashqi axborotlar asosida defolt ehtimolligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Mijozlarga berilgan kreditlar, shuningdek, kredit xarakteridagi majburiyatlar bo'yicha kutilayotgan kredit zararlarini zaxirasi to'g'risidagi ma'lumotlar konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga 10 va 29 -ilovalarda keltirilgan.

Auditimiz davomida biz quyidagilarga alohida e'tibor qaratdik: kredit tavakkalchiligi modellarini hamda zaxira shakllantirishning asosiy parametrlarini va portfel bo'yicha kutilayotgan kredit zararlarini aniqlash uchun foydalaniladigan farazlarni baholash; portfel asosida kredit tavakkalchiligining sezilarli darajada oshganligini aniqlash bo'yicha rahbariyat mulohazalarini baholash.

Biz portfel asosida kredit tavakkalchiligining sezilarli darajada oshganligini aniqlash uchun rahbariyat tomonidan tanlangan kredit tavakkalchiligi omillari va chegara qiymatlarining oqilonaligini baholadik.

Portfel asosida hisoblangan qadrsizlanishni testdan o'tkazishda biz kutilayotgan kredit zararlarini hisoblashda foydalaniladigan asosiy statistik modellarni, asosiy boshlang'ich ma'lumotlar va farazlarni, shuningdek, prognoz ma'lumotlarini tahlil qildik.

Biz Bank tomonidan MHXS (IFRS) 9 maqsadlari uchun qo'llaniladigan modellarning keyingi test sinovlari natijalarini ko'rib chiqdik.

Foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda baholanadigan mijozlarga berilgan kreditlar va bo'naklarning baholanishi

Ushbu summaning muhimligi hamda foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda baholanadigan mijozlarga berilgan kreditlar va bo'naklarni baholashning subyektiv xususiyati munosabati bilan biz ushbu masalaga alohida e'tibor qaratdik.

Mazkur kreditlarning adolatli qiymatini baholash bozorda kuzatilmaydigan ma'lumotlardan, jumladan, mijozlarning kredit sifatini aks ettiruvchi ma'lumotlar, foiz stavkalari egri chiziqlari va volatillikdan foydalanadigan murakkab baholash modellarini yordamida amalga oshiriladi.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotga 10 va 29-ilovalarda foyda yoki zarar orqali adolatli qiymatda baholanadigan mijozlarga berilgan kreditlar va bo'naklarni baholash to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Auditimiz davomida biz Bank tomonidan baholash uchun foydalanilgan asosiy metodikalar, formulalar va ma'lumotlar manbalarining MHXS talablariga muvofiqligini baholashga alohida e'tibor qaratdik.

Biz o'zimiz tanlab olgan kreditlarni baholash modellarini testdan o'tkazdik. Bizning ishimiz modellar va foydalanilgan ma'lumotlarning maqbulligini baholashni, ayrim hisob-kitoblarni qayta bajarishni, shuningdek, turli tahliliy va boshqa amaliyotlarni o'z ichiga oldi.

Boshqa ma'lumotlar

Guruh rahbariyati boshqa ma'lumotlar uchun mas'uldir. Boshqa ma'lumotlar Yillik hisobotdagi ma'lumotlarni anglatadi, biroq u konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni va bizning u bo'yicha auditorlik xulosamizni o'z ichiga olmaydi. Yillik hisobot bizga ushbu auditorlik xulosasi sanasidan keyin taqdim etilishi kutilmoqda.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot bo'yicha bizning fikrimiz boshqa ma'lumotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi va biz ushbu ma'lumotlarga nisbatan har qanday shakldagi ishonchni asoslovchi xulosa bermaymiz.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot auditini o'tkazishimiz munosabati bilan bizning majburiyatimiz yuqorida ko'rsatilgan boshqa ma'lumotlar bizga taqdim etilganda ular bilan tanishib chiqish hamda ushbu jarayonda boshqa ma'lumotlar va konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot o'rtasida yoki audit davomida olgan bilimlarimiz orasida muhim tafovutlar mavjudligini, shuningdek, boshqa ma'lumotlarda boshqa turdagi ehtimoliy muhim noto'g'ri talqinlar bor-yo'qligini ko'rib chiqishdan iborat.

Agar o'tkazilgan ishlarimiz asosida boshqa ma'lumotlarda muhim noto'g'ri talqin mavjud degan xulosaga kelsak, biz bu haqda korporativ boshqaruv uchun mas'ul bo'lgan shaxslarni xabardor qilishimiz shart.

Audit o'tkazilayotgan sub'ekt rahbariyatining va korporativ boshqaruvi uchun mas'ul shaxslarning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot bo'yicha mas'uliyati

Rahbariyat ushbu konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni MHXSga muvofiq tayyorlash va haqqoniy taqdim etish hamda g'ayriqonuniy xatti-harakatlar yoki xatolar natijasida yuzaga keladigan muhim noto'g'ri talqinlardan xoli bo'lgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun zarur deb hisoblangan ichki nazorat tizimi uchun mas'uldir.

Ushbu konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tayyorlashda rahbariyat Guruhning o'z faoliyatini uzluksiz davom ettirish qobiliyatini baholash, tegishli hollarda faoliyatning uzluksizligiga oid ma'lumotlarni ochib berish va hisobotni faoliyatning uzluksizligi faraziga asoslanib tuzish uchun mas'uldir, bundan rahbariyat Guruhni tugatishni yoki uning faoliyatini to'xtatishni niyat qilgan yoxud tugatish yoki faoliyatni to'xtatishdan boshqa biror-bir real muqobilga ega bo'lmagan hollar mustasno.

Guruhning korporativ boshqaruviga mas'ul shaxslari audit qilinayotgan sub'ektning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotini tayyorlash jarayoni ustidan nazorat qilish uchun mas'uldir.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot audit uchun auditorning mas'uliyati

Bizning maqsadimiz - konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotda g'ayriqonuniy xatti-harakatlar yoki xatolar natijasida yuzaga kelgan muhim noto'g'ri talqinlar mavjud emasligiga nisbatan oqilona ishonch hosil qilish hamda o'z fikrimizni o'z ichiga olgan auditorlik xulosasini tuzishdan iborat. Oqilona ishonch - bu ishonchning yuqori darajasi, biroq u Xalqaro audit standartlariga (XAS) muvofiq o'tkazilgan audit har doim ham mavjud bo'lgan muhim noto'g'ri talqinlarni aniqlashiga kafolat bermaydi. Noto'g'ri talqinlar g'ayriqonuniy xatti-harakatlar yoki xatolar natijasida yuzaga kelishi mumkin va agar alohida yoki jamlangan holda ushbu noto'g'ri talqinlar foydalanuvchilarning mazkur konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot asosida qabul qiladigan iqtisodiy qarorlariga ta'sir ko'rsatishi oqilona taxmin qilinsa, ular muhim deb hisoblanadi.

Xalqaro audit standartlariga (XAS) muvofiq o'tkazilayotgan audit doirasida biz butun audit davomida professional mulohazani qo'llaymiz va professional skeptitsizmni saqlab qolamiz. Bundan tashqari, biz quyidagilarni amalga oshiramiz:

⇒ g'ayriqonuniy xatti-harakatlar yoki xatolar natijasida konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning muhim noto'g'ri talqin qilinishi tavakkalchiliklarini aniqlaymiz va baholaymiz; ushbu tavakkalchiliklarga javoban auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqamiz va o'tkazamiz; fikr bildirishimiz uchun asos bo'lib xizmat qiladigan yetarli va munosib auditorlik dalillarini olamiz. G'ayriqonuniy xatti-harakatlar natijasida yuzaga kelgan muhim noto'g'ri talqinni aniqlamaslik tavakkalchiligi xato natijasidagi noto'g'ri talqinni aniqlamaslik tavakkalchiligidan yuqori, chunki g'ayriqonuniy xatti-harakatlar til biriktirish, qalbakilashtirish, ma'lumotlarni qasddan o'tkazib yuborish, noto'g'ri talqin qilish yoki ichki nazorat tizimini chetlab o'tish harakatlarini o'z ichiga olishi mumkin;

⇒ sharoitga mos keladigan auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqish maqsadida audit uchun ahamiyatli bo'lgan ichki nazorat tizimi to'g'risida tushunchaga ega bo'lamiz, biroq bu Guruhning ichki nazorat tizimi samaradorligi bo'yicha fikr bildirish maqsadini ko'zlamaydi;

⇒ qo'llanilayotgan hisob siyosatining munosibligini, buxgalterlik baholashlarining asoslanganligini va Guruh rahbariyati tomonidan tayyorlangan tegishli ma'lumotlarning ochib berilishini baholaymiz;

⇒ rahbariyat tomonidan faoliyatning uzluksizligi farazining qo'llanilishi o'rinli ekanligi to'g'risida xulosa qilamiz, olingan auditorlik dalillari asosida esa - Guruhning o'z faoliyatini uzluksiz davom ettirish qobiliyatiga nisbatan jiddiy shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan voqealar yoki shart-sharoitlar bilan bog'liq muhim noaniqlik mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risida xulosa chiqaramiz. Agar biz muhim noaniqlik mavjud degan xulosaga kelsak, auditorlik xulosamizda konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotdagi tegishli ma'lumotlarning ochib berilishiga e'tibor qaratishimiz yoki, agar bunday ma'lumotlarni ochib berish munosib bo'lmasa, o'z fikrimizni modifikatsiya qilishimiz shart. Bizning xulosalarimiz auditorlik xulosasi sanasigacha olingan auditorlik dalillariga asoslanadi. Biroq, kelajakdagi voqealar yoki shart-sharoitlar Guruhning o'z faoliyatini uzluksiz davom ettirish qobiliyatini yo'qotishiga olib kelishi mumkin;

⇒ konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning umumiy taqdim etilishi, uning tuzilishi va mazmunini, shu jumladan, ma'lumotlarning ochib berilishini baholaymiz, shuningdek, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotda uning asosini tashkil etuvchi operatsiyalar va voqealar haqqoniy taqdim etilishini ta'minlaydigan tarzda aks ettirilganligini baholaymiz;

⇒ konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot bo'yicha fikr bildirish uchun Guruh ichidagi tashkilotlarning moliyaviy ma'lumotlariga yoki faoliyatiga oid yetarli va munosib auditorlik dalillarini olamiz. Biz Guruh auditiga rahbarlik qilish, uni nazorat qilish va o'tkazish uchun mas'ulmiz. Biz o'z auditorlik fikrimiz uchun to'liq javobgar bo'lib qolamiz.

Biz Guruhning korporativ boshqaruvi uchun mas'ul bo'lgan shaxslar bilan o'zaro axborot almashinuvini amalga oshiramiz, bunda ularning e'tiboriga, boshqa masalalar bilan bir qatorda, auditning rejalashtirilgan hajmi va muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, audit natijalari bo'yicha aniqlangan muhim mulohazalarni, jumladan, audit jarayonida biz tomonimizdan aniqlangan ichki nazorat tizimining jiddiy kamchiliklarini yetkazamiz.

Shuningdek, biz korporativ boshqaruv uchun mas'ul bo'lgan shaxslarga mustaqillikka oid barcha tegishli etika talablariga rioya qilganligimiz to'g'risida bayonot beramiz va ularga auditor mustaqilligiga ta'sir ko'rsatishi oqilona taxmin qilinishi mumkin bo'lgan barcha munosabatlar va boshqa masalalar haqida, zarur hollarda esa - tegishli ehtiyot choralarini to'g'risida ma'lumot beramiz.

Korporativ boshqaruv uchun mas'ul bo'lgan shaxslar e'tiboriga yetkazilgan masalalar orasidan biz joriy davr uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot auditida eng muhim deb topilgan va, binobarin, auditning asosiy masalalari hisoblangan masalalarni belgiladik. Biz ushbu masalalarni auditorlik xulosamizda bayon etamiz, bundan qonun yoki me'yoriy hujjatlar bilan ushbu masalalar haqidagi ma'lumotlarni ommaga ochib berish taqiqlangan hollar yoxud, o'ta kamdan-kam hollarda, ma'lum bir masala to'g'risidagi ma'lumotni xulosamizda ma'lum qilmaslik kerak deb hisoblagan holatlarimiz mustasno, chunki bunday ma'lumotni yetkazishdan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar uning ijtimoiy manfaatdorligidan ustun kelishi oqilona taxmin qilinadi.

Boshqa qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablari to'g'risidagi hisobot

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi O'RQ-580-sonli "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq o'tkazilgan tekshiruv natijalari haqida hisobot.

Bank rahbariyati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (bundan buyon matnda - "Markaziy bank") tomonidan belgilangan prudensial normativlarga Bank tomonidan rioya etilishi, shuningdek, Bankning ichki nazorati va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlarining tashkil etilishi Markaziy bank tomonidan qo'yilgan talablarga muvofiqligi uchun mas'uldir.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi O'RQ-580-sonli "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 74-moddasiga muvofiq, biz 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan prudensial normativlarning bajarilishini hamda Bankning ichki nazorat elementlari va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari tashkil etilishining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga muvofiqligini tekshirish maqsadida amaliyotlar o'tkazdik.

Mazkur amaliyotlar bizning mulohazamiz asosida tanlab olindi hamda tahlil qilish, hujjatlarni o'rganish, Bank tomonidan tasdiqlangan ichki siyosatlar, amaliyotlar va metodologiyalarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qo'yilgan talablar bilan solishtirish, shuningdek, raqamli ko'rsatkichlar va boshqa ma'lumotlarni qayta hisoblash, solishtirish va solishtirma tekshirish bilan cheklandi.

O'tkazilgan amaliyotlarimizda Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan likvidlikning prudensial normativlari bajarilishi qismidagi natijalarini biz alohida hisobotda aks ettirdik.

O'tkazilgan amaliyotlarimizda Bank ichki nazorat elementlari va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari tashkil etilishining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga muvofiqligi qismidagi natijalari bo'yicha quyidagilar aniqlandi:

⇒ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Bankning Ichki audit xizmati "Trastbank" XABning aksiyadorlar yig'ilishining 2025-yil 22-maydagi 62-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan tashkiliy tuzilmasiga muvofiq, Bank Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi va unga hisobdor hisoblanadi. Tavakkalchiliklarni boshqarish departamenti Bank Kuzatuv kengashining 2025-yil 24-sentyabrdagi 101-sonli bayonnomasiga muvofiq, Bank Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi va unga hisobdor hisoblanadi.

⇒ 2025-yil davomida Bankning tegishli tuzilmalari tomonidan hisobotlarni taqdim etish davriyligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga muvofiq bo'lgan. Mazkur hisobotlar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, ular Bankning Ichki audit departamenti tomonidan Bankning ichki nazorat tizimiga nisbatan o'tkazilgan kuzatuvlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

⇒ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga muvofiq, 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra Bankda Bank xavfsizligi departamenti va Kiberxavfsizlik boshqarmasi tashkil etilgan, biroq axborot xavfsizligi bo'yicha siyosat hali "Kiberxavfsizlik markazi" DUK bilan kelishilmagan va tegishli ravishda Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanmagan. Mazkur siyosat ishlab chiqilgan va hujjat loyihasi 2026-yil 10-fevraldagi 04-22-01/791-sonli kuzatuv xatiga asosan "Kiberxavfsizlik markazi" DUKga kelishish uchun yuborilgan. Bank xavfsizligi departamenti va Kiberxavfsizlik boshqarmasi bevosita Bank Boshqaruvi Raisiga bo'ysunadi.

⇒ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra amalda bo'lgan, kredit tavakkalchiligi, bozor tavakkalchiligi, likvidlik tavakkalchiligi, operatsion tavakkalchilik va mamlakat tavakkalchiligini (bundan buyon matnda - "Bank uchun muhim tavakkalchiliklar") aniqlash va boshqarish metodikalarini, shuningdek, stress-testlar o'tkazishni belgilovchi Bankning ichki hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talab va tavsiyalariga muvofiq, Bank boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan tasdiqlangan;

⇒ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra Bankda Bank uchun muhim tavakkalchiliklar, shuningdek, xususiy kapital bo'yicha hisobot tizimi mavjud bo'lgan.

⇒ 2025-yil davomida Bankning tavakkalchiliklarni boshqarish bo'linmalari va Bankning ichki audit xizmati tomonidan tavakkalchiliklarni boshqarish masalalari bo'yicha tayyorlangan hisobotlarning davriyligi Bankning ichki hujjatlariga muvofiq bo'lgan. Mazkur hisobotlar Bankning tavakkalchiliklarni boshqarish bo'linmalari va Bankning IAX (Ichki audit xizmati) tomonidan Bankning muhim tavakkalchiliklarini baholashga oid kuzatuvlari haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek, ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan;

⇒ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Komplayens-nazorat departamenti va Ichki audit departamenti Bank Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi va unga hisobdor, Bankning Tavakkalchiliklarni boshqarish departamenti, Bank xavfsizligi va AT (axborot texnologiyalari) departamenti hamda Sanksiyaviy komplayens xizmati bevosita Bank Boshqaruvi Raisiga bo'ysunadi, Monitoring va muammoli aktivlar bilan ishlash departamenti esa bevosita Boshqaruv Raisi o'rinbosariga bo'ysunadi;

⇒ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Bankda Bank uchun muhim tavakkalchiliklar, shuningdek, Bankning xususiy kapitali bo'yicha hisobot tizimi yuritilgan;

⇒ Ichki nazorat va sanksiyaviy komplayens departamenti O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan jismoniy va yuridik shaxslar ustidan avtomatlashtirilgan tizimlar (iABS, World-Check One, SWIFT, Transaction Screening) orqali jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha nazorat choralari amalga oshiradi;

⇒ Bank rahbariyati ichki nazorat tizimi tomonidan taqdim etiladigan muntazam va asoslangan ma'lumotlar hamda materiallar asosida qarorlar qabul qiladi va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari talablarining bajarilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi.

⇒ 2024-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Bank tomonidan ichki hujjatlar bilan belgilangan tavakkalchiliklarning cheklangan qiymatlari va kapitalning yetarililigiga rioya etilishini nazorat qilish Bank Kuzatuv kengashi va uning ijroiya organlari vakolatlariga kiradi. Bankda qo'llaniladigan tavakkalchiliklarni boshqarish tartiblarining samaradorligini va ularning 2025-yil davomida qo'llanilish izchilligini nazorat qilish maqsadida, Bank Kuzatuv kengashi va uning ijroiya organlari muntazam ravishda Bankning Tavakkalchiliklarni boshqarish departamenti tomonidan tayyorlangan hisobotlarni muhokama qilib bordilar hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif etilgan choralarni ko'rib chiqdilar.

Bankning ichki nazorat elementlari va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlarining tashkil etilishiga nisbatan tartib-taomillar biz tomonimizdan faqatgina Qonunda ko'rsatilgan va yuqorida bayon etilgan ushbu elementlarning O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qo'yilgan talablarga muvofiqligini tekshirish maqsadida o'tkazildi.


Ravshan Asfandiyarov
Bosh direktor

2012-yil 25-avgustdagi 05048-sonli
Auditorning malaka sertifikatini

2025-yil 11-martdagi 41-sonli Banklarda auditorlik
tekshiruvlarini o'tkazish huquqini beruvchi
auditorning malaka sertifikatini




Alimjon Isakov
Auditorlar guruhi rahbari

2007-yil 5-dekabrda 04475-sonli
Auditorning malaka sertifikatini

2023-yil 14-aprelda 26-sonli Banklarda auditorlik
tekshiruvlarini o'tkazish huquqini beruvchi
auditorning malaka sertifikatini

“PKF MAK ALYANS” MCHJ Auditorlik tashkiloti

2026-yil 14-aprel

Toshkent, O'zbekiston, Aviasozlar ko'chasi, 1-tor ko'cha, 22-uy

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki va uning sho‘ba korxonalari

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

(ming O‘zbek so‘mida)

Moddalar	Izoh	2025-yil 31-dekabr holatiga	2024-yil 31-dekabr holatiga
AKTIVLAR			
Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	7	3 238 009 788	2 390 191 423
Kredit tashkilotlaridagi mablag‘lar	8	165 414 640	159 674 464
Investitsiyaviy moliyaviy aktivlar	9	1 577 121 820	1 503 495 725
Mijozlarga berilgan kreditlar va bo‘naklar:		8 299 366 339	5 945 156 852
Minus: Ehtimoliy yo‘qotishlar bo‘yicha zaxiralar		(344 152 840)	(250 761 353)
Mijozlarga berilgan sof kreditlar va bo‘naklar	10	7 955 213 499	5 694 395 499
Assotsiyalangan tashkilotga investitsiyalar	11	204 779 900	160 060 815
Foyda solig‘i bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari		9 857 653	-
Kechiktirilgan soliq aktivlari	24	55 522 651	50 835 836
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	12	744 254 508	519 685 988
Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar	13	73 851 917	59 265 759
Boshqa aktivlar	14	139 486 477	187 062 965
JAMI AKTIVLAR		<u>14 163 512 853</u>	<u>10 724 668 474</u>
MAJBURIYATLAR			
Boshqa banklar mablag‘lari	15	108 912 308	48 380 213
Mijozlar mablag‘lari	16	9 716 681 682	7 536 206 481
Boshqa qarz mablag‘lari	17	866 435 565	401 609 691
Boshqa majburiyatlar	18	71 578 910	71 187 201
Jami majburiyatlar		<u>10 763 608 465</u>	<u>8 057 383 586</u>
XUSUSIY KAPITAL			
Aksiyadorlik kapitali	19	1 001 961 733	1 001 961 733
Qo‘shilgan kapital	19	517 724 283	517 724 283
Taqsimlanmagan foyda va fondlar		1 880 218 372	1 147 598 872
Jami xususiy kapital		<u>3 399 904 388</u>	<u>2 667 284 888</u>
JAMI MAJBURIYATLAR VA XUSUSIY KAPITAL		<u>14 163 512 853</u>	<u>10 724 668 474</u>

Guruh rahbariyati nomidan 2026-yil 14-aprelda tasdiqlangan va imzolangan.



Normuhamedov Sardor Rifatovich
Bank Boshqaruvi Raisi





Mamatkulov Anvar Boykuziyevich
Bank Bosh buxgalteri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki va uning sho’ba korxonlari

Foyda yoki zarar va boshqa umumiy daromadlar to’g’risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

(ming O’zbek so’mida)

Moddalar	Izoh	2025-yil uchun	2024-yil uchun
Samarali foiz stavkasi bo'yicha hisoblangan foizli daromadlar	20	1 660 010 020	1 254 171 395
Boshqa foizli daromadlar	20	362 066 698	319 218 960
Samarali foiz stavkasi bo'yicha hisoblangan foizli xarajatlar	20	(625 191 835)	(398 179 860)
Boshqa foizli xarajatlar	20	(28 405 074)	(11 321 546)
Sof foizli daromadlar		1 368 479 809	1 163 888 949
Qarzdorlik moliyaviy aktivlari bo'yicha kredit zararlari zaxirasining shakllantirilishi	7,8,10	(112 857 795)	(74 609 473)
Moliyaviy instrumentlarni dastlabki tan olishdan va kreditlar modifikatsiyasidan olingan sof daromadlar / (xarajatlar)		(9 669 872)	(1 686 444)
Kredit zararlari zaxirasi o'zgargandan keyingi sof foizli daromadlar / (xarajatlar)		1 245 952 142	1 087 593 032
Komissiya daromatlari	21	440 173 441	336 541 285
Komissiya xarajatlari	21	(130 538 907)	(98 928 328)
Valyuta operatsiyalaridan olingan sof foyda		154 270 218	148 197 549
Assotsiyalangan tashkilot moliyaviy natijasidagi ulush	11	76 279 350	51 831 401
Kredit xarakteridagi majburiyatlar bo'yicha kredit zararlari zaxirasining tiklanishi / (shakllantirilishi)	18	(5 141 650)	3 685 280
Boshqa aktivlar bo'yicha zaxiralarning tiklanishi / (shakllantirilishi)		(21 533 877)	9 699 341
Boshqa operatsion daromadlar	22	15 784 833	8 122 765
Xodimlar bilan bog'liq xarajatlar va boshqa operatsion xarajatlar	23	(796 080 896)	(658 505 195)
Soliq to'langunga qadar foyda		979 164 654	888 237 130
Daromad solig'i bo'yicha tejamkorlik / (xarajat)	24	(126 484 183)	(132 825 433)
Yil bo'yicha foyda		852 680 471	755 411 697
Boshqa umumiy daromadlar			
Boshqa umumiy daromad orqali adolatli qiymatda baholanadigan toifaga kiritilgan qimmatli qog'ozlar – ulushli instrumentlar	12	(37 851)	11 511
Umumiy daromad komponentlariga tegishli foyda solig'i	24	7 570	(2 302)
Yil uchun jami umumiy daromad		852 650 190	755 420 906
Aksiyaga nisbatan asosiy va suyultirilgan foyda		852,46	755,25

Guruh rahbariyati nomidan 2026-yil 14-aprelda tasdiqlangan va imzolangan.

Normunamedov Sardor Rifatovich
Bank Boshqaruvi Raisi



(Handwritten signature)

Mamatkulov Anvar Boykuziyevich
Bank Bosh buxgalteri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki va uning sho‘ba korxonalari

Pul oqimlari to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

(ming O‘zbek so‘mida)

Moddalar	2025 yil uchun	2024 yil uchun
Operatsion faoliyatdan pul oqimlari		
Olingan foizlar	1 926 541 596	1 551 491 537
To‘langan foizlar	(653 596 910)	(409 540 923)
Olingan komissiyalar	424 651 268	330 595 436
To‘langan komissiyalar	(125 015 417)	(95 759 897)
Chet el valyutasidagi operatsiyalardan olingan sof daromad	(154 753 910)	(150 401 257)
Boshqa olingan operatsion daromadlar / (xarajatlar)	47 345 098	55 824 886
Xodimlar uchun to‘langan xarajatlar	(447 579 900)	(372 152 007)
To‘langan boshqa operatsion xarajatlar	(255 772 144)	(218 750 795)
To‘langan foyda solig‘i	(148 608 989)	(134 079 904)
Operatsion aktivlar va majburiyatlardagi o‘zgarishlargacha bo‘lgan operatsion faoliyatdan pul oqimlari	613 210 692	557 227 076
Operatsion aktivlardagi o‘zgarishlar (ko‘payish) / kamayish		
Markaziy bankdagi majburiy zaxiralar	-	63 635 211
Kredit tashkilotlaridagi mablag‘lar	(5 740 176)	40 328 833
Mijozlarga berilgan kreditlar va bo‘naklar	(2 264 906 764)	(808 980 604)
Boshqa aktivlar	32 990 330	42 964 566
Operatsion majburiyatlardagi o‘zgarishlar (ko‘payish) / kamayish		
Boshqa banklar mablag‘lari	60 532 095	(199 960 853)
Mijozlar mablag‘lari	2 180 475 201	706 264 723
Boshqa majburiyatlar	391 709	12 121 787
Operatsion faoliyatdan pul oqimlarining sof harakati	616 953 087	413 600 739
Investitsiyaviy faoliyatdan pul oqimlari		
Investitsiyaviy qimmatli qog‘ozlarni sotib olish	(11 710 752 353)	(1 397 349 467)
Investitsiyaviy qimmatli qog‘ozlarning so‘ndirilishi	11 957 432 144	927 499 000
Assotsiyalangan tashkilotga investitsiya kiritish	-	(60 641 286)
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotib olish	(317 009 915)	(181 436 624)
Asosiy vositalarni sotishdan tushumlar	12 699 509	7 381 307
Investitsiyaviy faoliyatdan pul oqimlarining sof harakati	(57 630 615)	(704 547 070)
Moliyaviy faoliyatdan pul oqimlari		
Olingan boshqa qarz mablag‘lari	635 436 870	380 267 890
To‘langan boshqa qarz mablag‘lari	(170 610 996)	(156 939 591)
To‘langan dividendlar	(120 030 690)	(131 899 778)
Moliyaviy faoliyatdan pul oqimlarining sof harakati	344 795 184	91 428 521
Valyuta kurslari o‘zgarishining pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlariga ta‘siri	(56 782 983)	50 969 427
Kutilayotgan kredit zararlarining pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlariga ta‘siri	483 692	2 203 708
Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarining sof ko‘payishi (kamayishi)	847 818 365	(146 344 675)
Hisobot davri boshidagi pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	2 390 191 423	2 536 536 098
Hisobot davri oxiridagi pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	3 238 009 788	2 390 191 423

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki va uning sho‘ba korxonalari

Kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

(ming O‘zbek so‘mida)

Moddalar	Aksiyadorlik kapitali	Qo‘shilgan kapital	Taqsimlanmagan foyda va fondlar	Kapitaldagi jami o‘zgarishlar
2024-yil 1-yanvar holatiga qoldiq	<u>1 001 830 644</u>	<u>516 738 818</u>	<u>525 194 298</u>	<u>2 043 763 760</u>
Aksiyadorlik kapitalining ko‘payishi	131 089	985 465	-	1 116 554
Oddiy aksiyalar bo‘yicha e‘lon qilingan dividendlar	-	-	(133 012 882)	(133 012 882)
Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha e‘lon qilingan dividendlar	-	-	(3 450)	(3 450)
Davr uchun sof foyda	-	-	755 411 697	755 411 697
Boshqa umumiy daromad	-	-	9 209	9 209
2024-yil 31-dekabr holatiga qoldiq	<u>1 001 961 733</u>	<u>517 724 283</u>	<u>1 147 598 872</u>	<u>2 667 284 888</u>
Aksiyadorlik kapitalining ko‘payishi	-	-	-	-
Oddiy aksiyalar bo‘yicha e‘lon qilingan dividendlar	-	-	(120 027 240)	(120 027 240)
Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha e‘lon qilingan dividendlar	-	-	(3 450)	(3 450)
Davr uchun sof foyda	-	-	852 680 471	852 680 471
Boshqa umumiy daromad	-	-	(30 281)	(30 281)
2025-yil 31-dekabr holatiga qoldiq	<u>1 001 961 733</u>	<u>517 724 283</u>	<u>1 880 218 372</u>	<u>3 399 904 388</u>

Guruh rahbariyati nomidan 2026-yil 14-aprelda tasdiqlangan va imzolangan.



Normuhamedov Sardor Rifatovich
Bank Boshqaruvi Raisi




Mamatkulov Anvar Boykuziyevich
Bank Bosh buxgalteri